O‘ZBEKISTON
SAVDO-SANOAT
PALATASI

O‘zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh.,
Amir Temur shoh ko‘chasi, 4-uy
tel.: (+998) 78-150-60-06, 1094;
e-mail: info@chamber.uz, chamber@exat.uz
www.chamber.uz

CHAMBER OF COMMERCE AND INDUSTRY OF UZBEKISTAN ♦ ТОРГОВО-ПРОМЫШЛЕННАЯ ПАЛАТА УЗБЕКИСТАНА

Hurmatli ko'rgazmalar ishtirokchilari va mehmonlari!

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi nomidan Iteca Exhibitions va uning hamkorlari, ICA Eurasia Group va Congresses of Central Asia (CCA) tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarning ishtirokchilari va mehmonlarini qutlashdan mamnunman.

O‘zbekiston rahbariyati iqtisodiyotning barcha sohalarini dinamik rivojlantirish va biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu e’tibor nafaqat yirik ishlab chiqaruvchilar, balki kichik va o‘rta biznesni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga ham qaratilgan.

Savdo-sanoat palatasi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda, biznes muhitini yaxshilashda va tadbirkorlar va xorijiy hamkorlar o'rtasida aloqalarni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Bu borada Iteca Exhibitions va uning hamkorlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularni eng yangi uskunalar bilan jihozlash, innovatsiyalarni, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamlashtirish va energiya samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ko'rgazmalarda ishtirok etish mahalliy kompaniyalarga o'zlarining eksport salohiyatini namoyish etish va xorijiy kompaniyalar bilan savdo-iqtisodiy va investitsiya aloqalarini kengaytirish imkonini beradi.

Ko'rgazma va anjumanlar barcha sohalarda xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qilishiga ishonch bildirishga ijozat bergaysiz.

Ko'rgazma ishtirokchilari va mehmonlariga biznesni rivojlantirishda muvaffaqiyatlar tilayman.

Rais **D.Vaxabov**